



TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASI QARORI

Nurafshon shahri, Bobur ko'chasi, 1-uy

№ 38

2024-yil 15-avgust

Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi huzurida matbuot markazini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 26-iyulda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Matbuot markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 1355-sonli qaroriga asosan, hududiy saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi huzurida matbuot markazi (*keyingi o'rinlarda - Matbuot markazi*) tashkil etilsin.
2. Matbuot markazining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Matbuot markazi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi hamda hududiy saylov komissiyasi qarorlari asosida amalga oshirilsin.
4. Matbuot markazi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari deputatlari saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.
5. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Matbuot markaziga yuborilsin.
6. Ushbu qaror hududiy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.
7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish hududiy saylov komissiyasi raisi o'rinbosari D.Shoismanov zimmasiga yuklansin.

Rais



U.Tuxtayev

*Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasining
2024-yil 15-avgustdagi 38-son qaroriga
ilova*

**Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi
huzuridagi matbuot markazining
TARKIBI**

Musayev Abdulaziz
Isakovich

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi Toshkent
viloyati sharhlovchisi.

Tursunqulov Otabek Valijon
o‘g‘li

“Yoshlar kundaligi” media loyihasining operator-
montajchisi

Qoraboyev Sherzod
Luqmonjonovich

Yoshlar kundaligi” media loyihasi fotografi

Abdurashidova Anora
Abdumanob qizi

“Yoshlar kundaligi” media loyihasining muhbiri